



**XORAZMSHOHLAR - ANUSHTAGENIYLAR DAVLATINING TASHKIL
TOPISH TARIXI VA UNING TARIXSHUNOSLIGI BO'YICHA AYRIM
MULOHAZALAR**

Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Parmonov Sharofiddin Shavkatovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar

Fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anushtaginning qul sifatida Saljuqiylar hududiga borib qolish tarixi hamda uning yuqori lavozimga ko'tarilishi, Qutbiddin Muhammadning "Xorazmshoh" unvoni bilan taqdirlanishi, Sulton Sanjarga bergan yordamlari hamda ko'plab olimlar tomonidan bu davlatning o'rganilish tarixi haqida ayrim fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Anushtagin, Xorazm, mamluk, Bilgatagin, Qutbiddin Muhammad.

Xorazmshohlar sulolasining asoschisi Anushtagin yoshligida Garjistonda yashagan turk quli edi. Ba'zi manbalarda uni mamluklardan deyishgan, mamluklar esa qul ham, yollanma jangchi ham bo'lishi mumkin edi. Tarixchilardan Rashiddin va Xofizi Abro' uning o'g'uz turklarining Bekdili urug'idan deb yozishadi. Anushteginni yoshligida Saljuqiylardan Izziddin Onar Bilgatagin sotib oladi va u saljuq sulton Malikshoh I (1072-1092) ning saroy a'yonlaridan biri, sulton hovuzlari va hammomlari ashyolarining xazinachisi – tashtdorlik mansabida edi. Sulton tashtdorlik mansabiga asosan, eng ishonchli kishilarni tayinlar edi, ko'p o'tmay hattoki, Anushtagin ham sultonning eng ishonchli



kishilaridan biriga aylandi. Malikshoh o'sha paytda Xorazm mutasarifi (sarflovchisi) mansabiga Anushtaginni tayinlab, unga Xorazm shixnasi ya'ni (raisi, qal'a boshlig'i) unvonini bergan edi. Biroq Anushtagin Xorazmdagi hokimiyat ishlariga aralasha olmas edi [1, 7-b]. 1097-yilda Anushtagin vafot etgach, uning o'rniga Xorazm noibi etib Ekinji ibn Qoracharni tayinlanadi. Sulton Berkiyoruq (1094-1104) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Dodbek Habashiy ibn Oltuntosh 1097-yilda vafot etgan Anushtaginni xizmatlarini inobatga olgan holda uning o'g'li Qutbiddin Muhammadinni Xorazm hokimi etib tayinlab, unga "Xorazmshoh" unvonini beradi. Qutbiddin Muhammad (1097-1127) otasining hayotlik chog'idayoq Marvda o'qib, ta'lim olgan, ko'plab dunyoviy va diniy ilmlardan xabardor bo'lgan ma'rifatli shaxs bo'lgan.

Tarixiy manbalarda olib borilgan tadqiqotlar ham uning ma'rifatli hukmdor sifatida o'z aholisiga homiylik qilganligi haqida alohida ta'kidlab o'tadi. Xususan, ahli Xorazmda "O'z fuqarolariga adolatli" hukmdorning obro'si juda baland edi. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad saljuqiylarning hokimiyat uchun kurashlarida faol qatnashar edi. Jumladan, 1100-yili sulton Jaloliddin Malikshoh I ning o'g'li Sanjar tomonidan Xuroson hududlarini egallashda unga qarshi isyonni bostirishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, u 1118-yili Sanjar tomonida turib, uni sultonlik taxtiga o'tirishiga munosib hissa qo'shadi. Hattoki, diplomatik mahorat qobiliyatiga ega bo'lgan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad turli nizolarni bartaraf etishda ham ishtirok etgan.

Xususan, Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjarning (1118-1157) Samarqanddagi qoraxoniylar xoni Arslonxonga (1102-1130) qarshi harakat qilganda ham Qutbiddin Muhammad tufayligina ushbu nizo tinch yo'l hal bo'ladi. Bu ham albatta Qutbiddin Muhammadning o'z davrining nufuzli hukmdori bo'lganligidan darak beradi. U juda ham ma'suliyatli hukmdor edi, shuning uchun ham u o'zi boshqarib turgan hududga hujum qilgan ko'chmanchilarni ham bartaraf etishga muvaffaq bo'ladi. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadni tarixiy yodgorliklarda " Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu'in Amiral-mo'minin" ("Dunyo va din Qutbi, g'alabalar otasi , Mo'minlar amiri – xalifa



yordamchisi “) unvoni bilan atashgan. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad 30 yil davomida Xorazmda hukmronlik qildi. U vafotiga qadar (1127) saljuqiylar, xususan Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan bo’lsada, Xorazm xalqining manfaati uchun imkon qadar harakat qilgan hukmdor edi [2, 399-b]. Shunday qilib, aynan mana shu yildan boshlab, sulola tarixi boshlanadi.

Xorazmshohlar-Anushteginiylar

(1097-1231)

1. Anushtegin (taxm. 1077-1097 yy)
2. Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy)
3. Olovuddin Otsiz (1127-1156 yy)
4. El Arslon (1156-1172 yy)
5. Olovuddin Takesh (1172-1200) (shu davrda 1172-1193 yy. Mobaynida inisi Sultonshoh bilan hokimiyat borasida raqobat qilgan)
6. Olovuddin Muhammad xorazmshoh (1200-1220 yy)
7. Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) (1220-1231 yy)

Shunday qilib, Xorazmshoh –Anushtageniylarni yuqoridagi hukmdorlar tomonidan boshqarilgan [3, 229-b].

Xorazmshoh-Anushtageniylar davlati tarixiga oid bir qator tarixiy manbalar mavjud bo’lib, ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi. Xususan, Ibn al-Asirning (1160-1234) “Al-komil fit-tarix” (“Mufasssal tarix”), Rashididdin Fayzulloh al-Hamadoniyni (1247-1318) jahon tarixiga bag’ishlangan “ Jome ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyni katta ahamiyat kasb etuvchi “Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberding hayot faoliyati”), Olovuddin Otamalik Juvayning (1226-1283) “ Tarixi Jahonkushoy” (“Jahongir tarixi”), Hamidulloh Qazviniyni (1281-y.tug’) “Tarixi guzida” (“Saylangan tarixi”), Abul Fidoni (1273-1257) “Muxtasar tarix al-bashar” (“Bashariyat qisqacha tarixi”), Sharofuddin Abdulloh



Vassofning “Tarixi Vassof”, Minhojiddin Juzjoniyning “Taboqati Nosiriy” (“Nosirga atalgan tabaqalar”) asarlari shular jumlasiga kiradi.

Xorazmshoh-Anushtaginiylar davlati tarixi XX asr tarixshunoslari tomonidan ham oʻrganilgan. Xususan, Rus olimlaridan V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Ya.Yakubovskiy, S.Volin va boshqalar oʻzlarining asarlarida tegishli masala mohiyatini ochib berganlar. Bundan tashqari, xorazmshohlar tarixiga oid boʻlgan fundamental asarni sharqshunos olim Z.Bunyodov tomonidan “Anushtagin xorazmshohlar davlati” kitobi muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda xorazmshohlar davlatining paydo boʻlishi, taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, madaniyat masalalarini yoritib bergan. Ushbu asarni oʻzbek kitobxonlari 1998-yildagi tarjimasi tufayli oʻz ona tillarida oʻqishga muyassar boʻlganlar. Shu bilan birgalikda xorazmshohlar tarixiga oid masalalarni xorijiy olimlar ham oʻz asarlarida yoritib berganlar. Jumladan, ularning orasida K.Bosvort, Ibrohim Qafas oʻgʻli, J.A.Boyl, K.K.Valker, R.Krausset, D.Martin, R.Maxapandita, E.Knoblich, O.Tonariy, G.Brokgelman, B.Shpuler, A.Xartmann, F.Daftariy, J.Kolbas, D.Siyoqiy, D.Timoxin va boshqalarning asarlarini taʼkidlash maqsadga muvofiqdir [4, 398-b].

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Xorazmshoh -Anushtaginiylar davlatining tashkil topishida qul boʻlgan Anushtagenning xizmati katta boʻldi. Sababi saljuqiylarning ishongan kishisi boʻlish uchun u jon-jahdi bilan harakat qildi. Albatta, uning xizmatlarini eʼtiborga olgan holda, vafotidan keyin oʻgli Qutbiddin Muhammadni otasining lavozimiga tayinlaganidan koʻrishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda Xorazmshohlarning qiziqarli tarixi faqat oʻzbek xalqining emas, balki boshqa xorijiy mamlakatlarning xotirasida ham saqlanib qolganligini yuqorida koʻrsatilgan tadqiqot ishlarida ham koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Буниёдов. 3. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231).-Тошкент. Ғафур Гулом номидаги "Адабиёт ва Санат" нашриёти.1998.
2. Sagdullayev A.S. Oʻzbekiston tarixi I kitob. -Toshkent. "Donishmand ziyosi". 2021.



3. Eshov B.J. Odilov.A.A. O‘zbekiston tarixi 1-jild. -Toshkent. 2013.
4. Sh. Sh. Parmonov. Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o‘rni.
5. Khayrullayevich, N. A. (2023). Cooperation of the Shanghai Cooperation Organization in the Field of Education. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 358-364.
6. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.
7. Nazarova Z.X."RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. Bokschi o‘g‘il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili. 2023.
7. Murotjon o‘g‘li X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.
8. Murotjon o‘g‘li, X. O. (2024). Madaniy antropologiya va undagi ilmiy yondashuvlarning shakllanish tarixi. International journal of science and technology, 1(16), 53-58.